

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30/01.2020.Ped26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDURAIMOV IKROMJON RAVSHANBEKOVICH

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TARIX FANI
O‘QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi (tarix)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy
(PhD) on pedagogical Sciences**

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining
uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Абдураимов Икромжон Равшанбекович

Совершенствование методики непрерывного профессионального развития
учителей истории на основе интегративного подхода 25

Abduraimov Ikromjon Ravshanbekovich

Improving the methodology of continuous professional development of history
teachers based on an integrative approach 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30/01.2020.Ped26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDURAIMOV IKROMJON RAVSHANBEKOVICH

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TARIX FANI
O‘QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi (tarix)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (DhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7775 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.tdpu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li
tarix fanlari doktori(DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

Boboyorov Shuxrat Suvonqulovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27 uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, p.f.n.,dotsen

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Jahon ta'lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida ijtimoiy fan o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishini uzluksiz ta'minlash metodlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 29-oktabrdagi PF – 6097-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida ta'lim mazmuni uzviy aloqador bir birini to'ldirgan sintezlash yangi jarayonlar elementlari yaxlitligini ta'minlash, bilimlarni tizimlashtirish, integrativ ta'lim metodlarini takomillashtirish, fanlarni o'qitishda deformatsiyalash va hamohanglikni yaratish integrativ ta'lim asosidagi o'qitishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jahon malaka oshirish muassasalarida pedagoglar o'quv jarayonida tarix fanini predmetlararo bog'liqligini aniqlash, tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatini tushunish, tahlil qilish va o'rganish, integrativ yondashuv jarayonlarining darajasini oshirish, integrativ ta'lim asosidagi darslarning chegaraviy muammolarini belgilash, gorizontal va vertikal integrativ ta'lim tarkibini bir-biriga bog'liqligini va individualligini ta'minlash, integrativ o'quv dasturlari va darsliklarini yaratish, ulardan foydalanib ilmiy tadqiqotlar olib borishga yangicha munosabatlar tuyg'usini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tarixiy-madaniy merosini o'rganish, Sharq mutafakkirlarining pedagogik ijodidan ta'lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish metodikalarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Milliy davlatchiligimizning yaratilishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv-metodik, ma'rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integrativlik mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy-nazariy, madaniy-ma'rifiy, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, dastavval, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy ta'lim muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish"¹ maqsad etib belgilandi. Natijada uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tarix fanlarini o'qitish va amaliyot integratsiyasini tashkil etish, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini bartaraf etish imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ – 637-sonli "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF – 5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 30.06.2017 yildagi PQ–3105-son Qarori.

farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF – 6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-sonli “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” qarori, 2019-yil 29-apreldagi PF – 5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, 2022-yil 11-maydagi PF – 134-sonli “2022–2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarini rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, malaka oshirish jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsion hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish metodikalarini rivojlantirish B.S.Abdullayeva, I.A.Avazboyev, B.R.Adizov, U.Sh.Begimqulov, Y.K.Babanskiy, M.G.Davletshin, R.X.Djurayev, O.R.Jamoliddinova, J.G‘.Yo‘ldoshev, Q.B.Yo‘ldoshev, A.A.Ibragimov, R.A.Mavlonova, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, A.B.Radjiyev, B.A.Supiyeva, Z.A.Nishonova, A.Ch.Choriyev, M.J.Shodiyeva, Sh.S.Sharipov, R.B.Yarmatov, M.A.Yuldashevlar tadqiqotlarida yoritilgan.

MDHda integrativ yondashuv asosida pedagoglarining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish yuzasidan A.D.Abashina, T.V.Bondareva, V.P.Bespalko, Y.N.Bondarenko, V.B.Gargay, V.V.Davidov, A.V.Zaporojes, I.N.Zornikov, P.S.Lerner, T.B.Masharova, Y.A.Masalova, D.A.Miller, A.V.Nekrachov, G.F.Fedores, O.M.Sichivitsa, E.I.Sokolnikova, Y.S.Tyunnikov, A.V.Usova, G.I.Shukina, D.B.Elkoninlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O‘quv fanlarini integratsiyalashtirib o‘qitish muammosining turli jihatlari Y.N.Biryukova, A.V.Gvozdeva, A.Y.Danilyuk, Y.S.Zagrayskaya, Y.P.Zvyaginseva, I.V.Kreneva, V.V.Levchenko, xorijda fanlarni integrativ ta‘lim asosida o‘qitish A.Bayar, H.D.Brovn, D.J.Soyle, M.B.Evans, M.B.King, B.Plough, N.V.Mokhamar, S.Sh.Shivanchi, T.K.Singh, G.Spenser-Brovn ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish,

elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan. (2021-2024-yy.).

Tadqiqotning maqsadi integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasi takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini faollashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning modelini takomillashtirish;

uzluksiz kasbiy rivojlanishda tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikalarini takomillashtirish;

tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida integrativ yondashuv asosida o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajriba sinov ishlari Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlarning tinglovchilari bilan tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari uch bosqichda jami uch yil ichida 442 nafar tinglovchilari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini integrativ yondashuvi asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ijtimoiy so'rov, anketa, suhbat, savol-javob, kuzatish, analitik obzor, tahlil, pedagogik eksperiment, matematik statistika, umumlashtirish, sotsiologik-pedagogik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasini faollashtirishning didaktik imkoniyatlari zamonaviy davrning bifurkatsiyon murakkab xarakteri, jamiyatning emerdjentligi va o'zaro bog'liqligi, nochiziqilik beqarorlikning ortib borishini idrok etish hamda metodik rivojlanish ko'rsatkichlari darajasi kognitiv, individual, ijodiy komponentlarining mazmunli yaxlitligini ta'minlashga dinamik ustuvorlik berish asosida aniqlangan;

tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni darslarni loyihalashtirishning modeli tafakkur kompetentlikligini bosqichma-bosqich oshirish, birlamchi manbalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish hamda o'rganilayotgan muammoga obyektiv munosabat aks ettirish va deduktiv prinsiplardan ratsional foydalanish asosida takomillashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasi ijtimoiy gumanitar fanlarni obyektiv dialektik tushunish chegaralari doirasini anglash, tayanch bilimlar yangi paradigmasiga mosligini adekvat ta'minlash hamda murakkab hodisa va jarayonlarni real hayotda foydalanish samaradorligini oshirish asosida takomillashtirilgan;

tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligi mustaqil ijodiy faoliyat elementlarini shakllantirishga qaratilgan baholash mezon va indikatorlarini qiyosiy darajalash, o'zini-o'zi anglash hamda muammoli vaziyatni yaratishga yo'naltirilgan munozara madaniyati, dialog olib borish qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga ustuvorlik asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishda faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy rivojlanishda "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borilgan;

tarix fani o'qituvchilarining malaka oshirish kurslarida uzluksiz kasbiy rivojlantirishining integrativ ta'lim yondashuvga asoslangan o'qitishning innovatsion usullarining metodik ta'minoti yaratilgan. "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 11-05-1120/04 raqamli dlolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-pedagogik yondashuv asosida pedagogik ta'lim sohasidagi xorijiy davlatlar va Respublika amaliyotchi – olimlarining ishlariga asoslanganligi, tadqiqot maqsadi, predmeti hamda tadqiqot metodlarining tanlanganligi, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan kurslar sonining talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov ishlarining tahliliy statistik ma'lumotlarga tayanilganligi, olingan natijalarning aniq metodlar yordamida tekshirilganligi, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma'ruzalari orqali ommalashtirilganligi hamda ma'qullanganligida o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tarix fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, kasbiy ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, ilmiy ijod, tadqiqotchilik kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy rivojlanish mezonlari o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, malaka oshirishda pedagogik tajriba-sinov orqali olingan natijalar tarix fani o'qituvchilarining integrativ yondashuv asosida kasbiy rivojlanish yo'nalishlari va metodikasiga asoslangan malaka oshirish kurslarida bilim, ko'nikma va amaliy mahoratning mazkur pedagoglarga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligi hamda maktablarida tarix darslari o'quv jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasini faollashtirishning didaktik imkoniyatlari zamonaviy davrning bifurkatsion murakkab xarakteri, jamiyatning emerdjentligi va o'zaro bog'liqligi, nochiziqlik beqarorlikning ortib borishini idrok etish hamda metodik rivojlanish ko'rsatkichlari darajasi kognitiv, individual, ijodiy komponentlarining mazmunli yaxlitligini ta'minlashga dinamik ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid takliflar

“Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 11-05-1120/04-raqamli dalolatnomasi). Natijada tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlantirishining metodik takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish samaradorligi oshgan;

tarix fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni darslarni loyihalashtirishning modeli tafakkur kompetentligini bosqichma-bosqich oshirish, birlamchi manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini oshirish hamda o‘rganilayotgan muammoga obyektiv munosabat aks ettirish va deduktiv prinsiplardan ratsional foydalanish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 11-05-1120/04-raqamli dalolatnomasi). Natijada tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishining metodik ta‘minotini yaratishga zarur shart-sharoitlar yaratilgan;

integrativ yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasi ijtimoiy gumanitar fanlarni obyektiv dialektik tushunish chegaralari doirasini anglash, tayanch bilimlar yangi paradigmasiga mosligini adekvat ta‘minlash hamda murakkab hodisa va jarayonlarni real hayotda foydalanish samaradorligini oshirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 11-05-1120/04-raqamli dalolatnomasi). Natijada tarix fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni boyitilgan;

tarix fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligi mustaqil ijodiy faoliyat elementlarini shakllantirishga qaratilgan baholash mezon va indikatorlarini qiyosiy darajalash, o‘zini-o‘zi anglash hamda muammoli vaziyatni yaratishga yo‘naltirilgan munozara madaniyati, dialog olib borish qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga ustuvorlik asosida takomillashtirishga oid takliflar “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 11-05-1120/04-raqamli dalolatnomasi). Natijada uzluksiz kasbiy rivojlanishning malaka talablari asosida o‘qitish metodikalarini intensivlashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta asosiy bob va umumiy xulosalarni o‘z ichiga olib, 148 sahifa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning

maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda ishning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Tarix fani o‘qituvchilarining malakasini oshirishda integrativ yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida ta’lim samaradorligini oshirish barcha zamonlarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sanalib kelinganligi zamonaviy ta’lim tizimida pedagoglarning dunyoqarashi, kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish va yuksak bilimli, intellektual rivojlangan pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning uzluksiz kasbiy rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilgan yondashuvlarning xarakteristikasi keltirilgan.

Tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanishda integrativ yondashuvning metodologik asoslari bo‘yicha kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o‘sishi uchun mustaqil izlanishi, zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va malakasini oshirib borishning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish nazarda tutiladi.

Tadqiqotlar davomida tarix fanini o‘qitishda olamning yaxlit, o‘zaro bog‘langan murakkab tizim ekanligiga yangi metodologik yondashuvlar zarurligini integrativ yondashuv asosida pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularni yangi metodikalarga o‘rgatish, kasb mahorati, malaka saviyasining doimiy o‘shishiga xizmat qiladigan tadqiqot ishiga ehtiyojlar borligi aniqlandi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda XXI asr o‘qituvchisining roli va funksiyalari, innovatsion faoliyatiga moyilligi, didaktik imkoniyatlari, metodik rivojlanish ko‘rsatkichlari kreativ salohiyatini rivojlantirish omillari ilmiy asoslandi. Tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishda “hayot davomida o‘qish” (lifelong learning) tamoyili asosida metodik rivojlanish ko‘rsatkichlari darajasi kognitiv, individual, ijodiy komponentlarning eng zamonaviy talablarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ustuvor vazifa sifatida belgilashimiz mumkin.

Shuningdek, tadqiqotlar davomida kasbiy rivojlantirishni didaktik imkoniyatlari, metodik rivojlanish ko‘rsatkichlarini yoritib berishga ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil etish asosida uning ta’lim sohasidagi davlat siyosati asosini tashkil etib, individual ta’lim trayektoriyalari asosida yechimini bartaraf etish, o‘rganilayotgan muammoga obyektiv munosabat aks ettirib va deduktiv prinsiplardan ratsional foydalanish, tafakkur kompetentligini bosqichma-bosqich oshirish loyihalashtirishning universal modeli ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot ishimizda tarix fanini o‘qitishda olamning yaxlit, o‘zaro bog‘langan murakkab tizim ekanligiga yangi metodologik yondashuvlar zarurligi A.Asqarov, M.A.Raximov, A.Muhammadjonov, T.Toshpo‘latov, Y.G‘afforov, Q.R.Shonazarov, B.Shodmonova, M.M.Yuldashev, R.B.Yarmatov singari olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida ta’lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, yangi metodikalarini yaratish va amaliyotga joriy qilishga to‘xtalgan bo‘lsalar, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalalari yuzasidan so‘nggi

yillarda E.M.Alkarov, A.S.Jo‘rayev, A.A.Ibragimov, X.I.Ibragimov, M.J.Shodiyeva, A.B.Radjiyev, B.A.Supiyeva, T.T.Shoyardonov, M.A.Yo‘ldashov singari pedagog-olimlar ilmiy ishlarida xalqaro ilg‘or xorij tajribalar asosida pedagogik texnologiyalar va o‘qitish sohasini takomillashtirish va rivojlantirishga doir masalalar o‘rganilgan. Ta‘lim mazmuniga yondashuv asosida fanlar integratsiyasi muammosiga A.D.Abashina, T.V.Bondareva, V.P.Bespalko, Y.N.Bondarenko, P.S.Lerner, T.B.Masharova, Y.A.Masalova, D.A.Miller, A.V.Nekrachov, G.F.Fedores, O.M.Sichivitsa, Y.S.Tyunnikov, G.I.Shukina, A.A.Xatyushina kabi MDH olimlari tomonidan turli davrlarda integrativ ta‘limni turli jihatlari, tizim elementlarining yaxlitlikligi ekanligi haqida fikrlar bildirishgan.

Integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari va uzluksiz kasbiy rivojlanishning ilmiy-nazariy asoslari xalqaro tajribalar asosida pedagoglarning dunyoqarashi, tasavvurlarini kengaytirishi, yuksak bilim va salohiyatiga ega, intellektual rivojlangan zamonaviy o‘qitish metodikalariga ega pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning uzluksiz kasbiy malakalarini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Integratsiya atamasi Y.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, “Hamma narsa – eng kattasi ham, eng kichigi ham bir-biriga bog‘langan bo‘lishi va bir butunlikni hosil qilish uchun birlashtirilishi kerak” deb ta‘kidlaydi. “Integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlanib (Integratsiya lot. integration – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish, integer-yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma‘nosida tushuniladi.

Integrativ ta‘lim yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlik darajasini takomillashtirish va kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmi orqali, ta‘limni uzviyligi va izchilligi ta‘minlanadi. Tarix fani ta‘limini bevosita maqsadi tarixiy tafakkurini shakllantirish orqali tarixiy jarayonga yagona hodisa sifatida qarab (o‘tmish - bugun - kelajak) tarixiy tafakkur ijodiy yondashuv malakalarini hosil qilish va inson qalbi, ongiga xalqimizning boy milliy hamda ma‘naviy qadriyatlarni singdirish bilan hamohang kechadi. Tarix fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanishda integrativ yondashuv asosida metodik rivojlanish muammosining ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Masalan, o‘rta asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va Al-Xorazmiylarning ilmiy faoliyatida o‘ziga xos integrativ yondashuvning elementlari namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Tarixchi olimlarimiz S.B.Shodmonova va M.M.Yuldashevning “Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi va zamonaviy usullari” nomli darsligida zamonaviy murakkab tizimlarni o‘rganish uchun yangicha metod va metodikalar, metodologik yondashuv va tafakkurning zarurligi yuzasidan mulohazalar bildirgan.

Respublikamiz maktablarida tarix o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan “Ikki mustaqil fan sifatida o‘qitiladigan Jahon va O‘zbekiston tarixining eng qadimgi davridan hozirgi kungacha ro‘y bergan voqea va jarayonlarini xronologik izchillikda o‘rganishdan iborat” ilmiy tadqiqotlar va metodik qo‘llanmalar tarixchi va pedagog olimlar T.Toshpo‘latov, Y.G‘afforovlar tomonida tahlil qilingan. Tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida integrativ yondashuvning o‘ziga xosligini

olimlarimiz, A.Asqarov, M.A.Raximov, A.Muhammadjonov o'zining ishlarida yoritib o'tgan.

Tarixchi olim Rajaboy Yarmatovning "Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish" nomli doktorlik ishida "Tarix o'qituvchilari integratsiya asosi sifatida "fanlararo aloqalar" tushunchasi bilan tanishadilar, "tarix-falsafa", "tarix-iqtisodiyot", "tarix-huquq", "tarix-geografiya", "tarix-adabiyot" va boshqa yo'nalishlar bo'yicha mazkur aloqalarni o'rnatish, individual bilim, ko'nikma yoki malakalarini shakllantirishga qaratilganligini ta'kidlaydi, ammo andragogika ya'ni kattalar ta'limi xususiyatlari haqida to'xtalmagan. Kattalar ta'limi o'ziga xos yondashuvni talab qiladi, chunki kattalar o'z tajribalariga tayanadi, o'rganishda maqsadga yo'naltirilgan va amaliyotga qaratilgan bo'ladi. Rassiyalik tarixchi olimlar tarixchi T.I.Goncharova "...mustaqil o'rganishsiz o'qitish yo'q va mustaqil o'qitishsiz o'rganish yo'q" degan xulosaga keladi. "I.M.Savelevo va A.V.Poletaevlarning ta'kidlashicha, Ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan doimiy va davomli aloqalar tarix fani yangi usullardan foydalanish, tarixiy material bilan tajriba o'tkazish imkonini kengaytirdi. Bunda sintez natijasida tarix fani o'z davriga munosib ravishda davrining asosiy ilmiy paradigmalarni (yunoncha – "namuna, andoza") aks ettirib beradi.

Integrativ yondashuv asosida ta'lim dasturlari samaradorligini va ularning ijobiy ta'sirini qo'llab-quvvatlash uchun uzoq yillar tadqiqotlar olib borilgan. Komenskiy "Grammatika va falsafa, falsafa va adabiyotning o'zaro bog'liqligi"ni takidlasa, Djon Lokk (John Locke) "Tarix va geografiya fanlarining integratsiyasi"ni ilgari suradi. Germaniyada XVIII asr oxirida yuzaga kelgan tarixiy maktab vakillari – I.G.Gerder, G.Gyugo, va G.F.Puxtalar Tarixning manbasini mavjud ijtimoiy, jumladan, moddiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlardan emas, balki sof subyektiv jarayonlardan – xalq ruhidan qidirdilar. Fransuz tarixchisi M.Emarning ilmiy qarashlariga ko'ra, "Bugungi kunda tarix fani jamiyatni o'rganuvchi boshqa fanlar tomonidan ilgari surilgan barcha fikrlar va gipotezalar (faraz) uchun ochiq bo'lishi lozimligi, tarix fanining metodikasi va undagi masalalar yangilanib turishi kerakligi"ni ta'kidlaydi. Nemis klassik falsafasining vakillari I.Kant, I.G.Fixte va G.V.Gegelning huquqiy qarashlarining negizini tarix, jamiyatshunoslik, jumladan, huquqni obyektiv idealistik – dialektik tushunish tashkil etganlikni ta'kidlash lozim.

XX asr boshlarida Amerika maktablarida progressiv ta'lim yo'lga qo'yila boshlandi. Progressiv ta'limning asosiy arboblardan biri bo'lgan Frensis Parker o'qitish va o'rganishga yangi yondashuvlarni taklif qildi. Integrativ ta'limning bunday usulidan AQSh o'rta maktablarining katta sinflarida fizika, kimyo, geografiya, tarix va huquqshunoslik, jamiyatshunoslik kabilarni o'z ichiga oluvchi "Yerni o'rganish" fani mazmuniga kiritilgan. Shunday qilib, AQShda "Ijtimoiy fanlar" (jumladan, tarix, huquq, geografiya va fuqorolik tadqiqotlari elementlari) kompleks kursi paydo bo'lishini B.Plough o'zining tadqiqot ishlarida ko'rsatib bergan. Mashhur fransuz tarixchisi M.Emarning ilmiy qarashlariga ko'ra, bugungi kunda tarix fani jamiyatni o'rganuvchi boshqa fanlar tomonidan ilgari surilgan barcha fikrlar va gipotezalar (faraz) uchun ochiq bo'lishi lozim, tarix fanining


metodikasi va undagi masalalar yangilanib turishi kerakligini uqtiradi.

Integrativ ta'lim biror bir sohaga tegishli bo'lgan qarashlar eng sodda tizimli tafakkurdir. Ular biror bir fan predmeti yoki hodisani mazmunini o'rganish jarayonida hosil bo'ladi. Integrativ ta'limning quyidagi bosqichlariga to'xtalamiz: fanlararo – alohida fanla doirasida (tarix, tarbiya, davlat va huquq fanlari); fan ichidagi – tizimga oid tushunchalar, ikki yoki undan ortiq mavzularning uyg'unligi asosidagi sintezi; predmetlararo – ta'limning asosiy va qo'shimcha bir butun tarkibiy qismlarining sintezi bo'lib, bizningcha bir fan doirasida emas, balki umumiy muammolarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishga o'rgatadi.

Milliy o'quv dasturlari fanlar chiziqli tartibda emas, balki spiralsimon tarzda o'qitilishi, ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini to'ldiruvchi, mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda interaktiv asosida o'qitishning uzviyligini ta'minlashga qaratildi. Milliy o'quv dasturi mohiyatidan kelib chiqib, yangi avlod darsliklari – integrativ ta'lim yondashuvi asosida fanlar va sinflarni uzviyligini bog'laydi. Rang-barang va yorqin tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv dasturlarining mazmuni 90 foiz nazariya, 10 foiz amaliyotdan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga eslab qolishga yo'naltirilgan. Milliy o'quv dasturi xalqaro tadqiqotlariga mos metodikalar asosidagi XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini 4K modeli (kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativlik va kritik fikrlash ko'nikmalari) va 5E modeli (Engage – jalb qilish, o'rganish; Explore – tadqiq qilish; Explain – tushuntirish; Elaborate – boyitish; Evaluate – baholash va ularga o'z fikrlarini ifoda etishga imkon yaratish) ekanligini ta'kidlash joiz.

Dissertatsiyaning **“Tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tarix fani o'qituvchilarining mahalliy hamda xorijiy ilg'or tajribalarini o'zida mujassam qilgan texnologiyalar tizimning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda uzluksiz kasbiy rivojlantirishining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. O'zini-o'zi anglash, adekvat fikrlash qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish individual ta'lim trayektoriyalari asosida takomillashtirish yechimini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etishi ham tahlil etilgan. Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, “hayot davomida o'qish” (lifelong learning) tamoyili asosida malaka oshirish tizimini takomillashtirib boorish ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish fanlarini o'qitish va amaliyot integratsiyasini tashkil etish.

Tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni darslarni loyihalashtirishning modeli tafakkur kompetentligini bosqichma-bosqich oshirish, individual ta'lim trayektoriyalari asosida yechimini bartaraf etish, manbalar bilan ishlash ko'nikmasini oshirish, o'rganilayotgan muammoga obyektiv munosabat aks ettirib va deduktiv prinsiplardan ratsional foydalanish asosida integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishning modelini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Uzlüksiz kasbiy rivojlanishda integrasion ta'limni amalga oshirish modeli

Mavjud tadqiqotlarning ko'pchiligi modelning ayrim jihatlariga bag'ishlangan kichik hajmli ishlardan iborat bo'lib, metodikani to'liq kompleks ko'rib chiqmaydi. Shu sababli, ushbu texnologiyani muayyan sharoitlarga moslashtirish zaruriyati yuzaga keladi. A.M.Novikov "Ta'lim loyihasi" (ta'lim faoliyati metodologiyasi) ta'lim jarayonida ushbu modeldan foydalanish asosida loyihalananayotgan model

belgilangan talablarga javob berishi bilan birgalikda soddaligi va adekvatligi bilan ajralib turish lozimligini uqtiradi. Demak, quyidagi afzallik tomonlarini inobatga olishni tavsiya etib, modelga qo'yilgan talablarning bajarilmasligi kutilgan natijalarga erishilmasligiga, amaliyotga joriy qilishda muammolar tug'ilishiga, ya'ni sifati va funkcionalligining tushib ketishiga sabab bo'ladi.

Milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini bartaraf etish "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" tomonidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim talablari va pedagog kadr (tinglovchi)larning malakasini oshirish mazmuniga qo'yiladigan va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilar jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy kasbiy sifatlari, yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlarini talab etadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishni asosiy darajalarini modelli loyihalashtirish: uzluksiz ta'limdan kutilayotgan natijalar va uning ahamiyati; o'qituvchilarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish; o'qituvchilarning ilmiy tafakkur, metod va metodikalarini rivojlantirish; o'quv fanlariga kompleks yondashuvni shakllantirish; atrofdagi dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar, kechayotgan siyosiy jarayonlarga obyektiv munosabat aloqalarni aks ettirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratildi.

Malaka oshirishning asosiy maqsadi professor-o'qituvchilar tomonidan o'qitishning metod va texnologiyalarni shunday tanlashi kerakki, ular pedagoglarga tayyor metodikalar berib qolmasdan, mustaqil ravishda turli manbalardan foydalanish, metodlar bazasini shakllantirish, undan yangi ma'lumotlar olishga e'tibor qaratishi, integrativ yondashuv asosida kasbiy rivojlanishlarini nazariy jihatdan tahlili qilishi, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, tadqiqotchilik kompetentligini, bilim, ko'nikma va amaliy mahoratni rivojlantirishdir.

Tadqiqotimiz jarayonida uzluksiz kasbiy rivojlantirishni turli shakllaridan foydalanish va metodik tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik, nazariy-metodologik ta'minotini yaratish, yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metod va metodikalarini, kasbiy mahoratlarini yangilab, integrativ ta'lim asosida malaka oshirish kurslarida mutaxassislik va umumkasbiy fanlarning o'zaro uyg'un holda o'qitishni tashkil etish bilan birga uzluksiz kasbiy rivojlantirishida tarix fanlarini o'qitishning uzviyligi va izchilligini ta'minlashga qaratildi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim olishning quyidagi shakllari: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish; ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish; masofaviy ta'lim; dual ta'lim; mustaqil ta'lim; malaka oshirishning muqobil shakllari mavjud.


Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslaridagi o'quv jarayoni ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadigan mashg'ulotlar jadvali asosida olib boriladi. Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqa davom etadigan dars juftligi belgilanadi.

Tarix fani o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishning metodik tizimi asosida malaka oshirish jarayonida olgan bilim va malakalarini dars vaqtida samarali yetkazish uchun qo'llaniladigan metodlar, usullar,

vositalar va shakllarning yaxlit tizimi ishlab chiqildi. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bergan tadqiqotchi A.Ibragimovning fikricha, "Ta'lim islohotlarini amalga oshirishda o'qituvchi omili ustuvor bo'lib, uning kasbiy kompetentlik darajasi tizim oldiga qo'yilayotgan vazifalarning samarali bajarilishini va kutilgan natijalarga erishish kafolatini ifoda etadi" bunda biz yondashuvning tizimli, integrativ, kompetensiyaga ega bo'lishiga, ta'limni uzluksizligi, uzviyligi va izchil davomiylik tamoyiliga etibor qaratdik.

O'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini tizimli oshirishda malaka oshirish kurslarida integrativ ta'lim asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirishda professor-o'qituvchilar tomonidan mutaxassislik va umumkasbiy fanlarni o'qitishida tinglovchilarning shaxsiy kompetensiyalarining rivojlanishiga etibor qaratdik. Tinglovchilar o'zini-o'zi anglash, natijasida nazariyani amaliyot bilan bog'lash, ilmiy amaliy metodik yordamlar ko'rsatish, kasbiy shaxsiy ish faoliyatidagi o'sishida amaliy ko'mak berishning didaktik va metodik ta'minoti ishlab chiqildi. Pedagog zimmasida bo'lgan yuksak ijtimoiy vazifa, faqatgina kasbiy rivojlanish emas, balki har taraflama barkamol, hayotiy vaziyatlarga tayyor bo'lish malaka oshirishda olgan bilimlarini ish faoliyatida qo'llay olishi bilan bog'liq muomalar tadqiqot ishimizda ilmiy-metodik sintez (tahlil) qilindi va o'rganishlar natijasida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishida metodik tizimni modellashtirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish elementlarini va o'quv maqsadlariga erishishning zamonaviy holatini ko'rib chiqamiz (2-rasmga qarang).



2-rasm. Tarix fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlanishning metodik tuzilishi

Tarix fanlarini o'qitishda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol ta'limni tashkil etish orqali integrativ yondashuvning quyidagi namunalarni ko'rishimiz mumkin: integrativ yondashuv – tarix fanlarida fanlararo va fan mavzulari bo'yicha integrativ yondashuv; innovatsiyon o'qitish texnologiyalari – virtual reallik, texnik vositalar, interaktiv dasturlarni qo'llash orqali mavzularini o'rganish va o'qitish orqali ta'limni sifati oshadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanishda tinglovchilarni innovatsion ilmiy-tadqiqot metodologiyasini o'z ichiga oladigan, ta'lim sifatini yaxshilanishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar mavjud: ilm-fan taraqqiyotini hisobga olgan holda ta'lim mazmunini va vazifalarini belgilash; yangi metodikalarga o'rgatish; ta'lim jarayoni va mazmuni birligi; o'quv reja va dasturlarining bir-birini o'zaro belgilashi; moddiy-texnik baza; pedagogik va axborot texnologiyalarining mavjudligi bilan bog'liq.

Turdosh fanlar bo'lgan – tarix, tarbiya, jamiyatshunoslik, huquqshunoslik, falsafaning umumiy omillari va xulosalari asosida birlashtirish, masalan, tarix hamda tarbiya, tarix hamda davlat va huquq asoslari, tarix hamda jamiyatshunoslik fanlarining integrativ yondashuvining o'ziga xosligi asosida mutaxassislik bo'yicha tegishli dalil va nazariy metodologik xulosalarni o'z ichiga olib, tahlil va sintez yo'li bilan tarixiy faktlarning tub mohiyati ochiladi. Malaka oshirishda olgan ko'nikmalari asosida maktab ta'limida dars jarayonlarida foydalanilayotgan turli metod, metodika va pedagogik texnologiyalarni qo'llashi bolalarda ta'lim olishga motivatsiyani uyg'otadi.

Tadqiqot ishimizda mashg'ulotlar jarayonida integrativ ta'lim asosida tinglovchilar faoliyatini boshqarish ularni to'g'ri yo'naltirishni nazarda tutadi. Nazorat qilish esa tinglovchilar faoliyatining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Natijalarni baholash va tahlil qilishda esa ta'lim jarayonining qanday kechganligini bilish, yutuqlar omillarini o'rganish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilash tavsiya etiladi.

Integrativ ta'lim kursning maqsad va vazifalarini aniqlashda kerakli o'quv dasturini ishlab chiqilmaganligi, situatsion o'quv xonalar tashkil etishdagi muammolar, pedagoglar malakasini tizimli oshirishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Bu integrativ yondashuv mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqmoqda. Emerdjentlik (yaxlitlik) qonuniyati (ing. "emergent" paydo bo'luvchi, yuzaga keluvchi) tizimning alohida elementlariga xos bo'lmagan yangi xususiyatlarini, ularning yaxlitligi natijasi hisoblanmish tizimda paydo bo'lishi orqali namoyon bo'luvchi qonuniyatdir. Yaxlitlik qonuniyati tizimlar nazariyasiga asosan bir-biridan farq qiluvchi uch jihatdan iborat. Integrativ ta'lim bilim savodxonligini oshirib, hayot jabhalarida kritik va kreativ fikrlash hamda hamkorlik hamda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ta'lim integratsiyasi deyilganda, nafaqat bilimlarning predmetlarlar bog'lanishi, balki o'qitish texnologiyalari, usul va shakllari ham tushunilib samaradorlikka erishish uchun fanlararo integrativ o'qitish metodikasida mavzularni takrorlamasdan bir-birini to'ldirishi vaqtini tejash, ya'ni kam vaqt sarflab katta hajmdagi materialni o'zlashtirish imkonini beradi.

Tarix fani o‘qituvchilarini integrativ ta’lim asosida malakasini oshirish bo‘yicha AKT foydalanish, multimediyalarni, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yaratish va metodlarni tanlash, saralash va qo‘llash orqali o‘qitishning interaktiv metodlari bo‘yicha modeli integratsiyasini tayyorlash maqsad qilingan.

Integrativ yondashuv asosida tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi, ta’limda alohida o‘quv predmetlari chegarasida amalga oshiriladigan metodik tahlil vositasi sifatida va fanlararo shaklida namoyon bo‘lib, integrativ o‘qitish metodikasini takomillashtirish, darslarni samarali tashkil etishga imkon beradi.

“O‘qituvchilarning o‘quv-metodik ishlarini tashkil etish” modulining asosiy maqsadi tarix fani o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslarida o‘qitish metodikalarini nazariy va amaliy darajasini takomillashtirishiga ko‘maklashadi.

3.6. “O‘qituvchilarning o‘quv-metodik ishlarini tashkil etish” modulining o‘quv-mavzu rejasi va dasturi (1-jadvalga qarang):

1-jadval

“O‘qituvchilarning o‘quv-metodik ishlarini tashkil etish” modulining o‘quv-mavzu rejasi va dasturi

T /r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Tarix fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish usullari	2		2
2.	Tarix fanini boshqa fanlar bilan integrasiya qilishning afzalliklari	2		2
3.	Ilmiy metodik ishlari	2		2
	Jami	6		6

3.6. “O‘qituvchilarning o‘quv-metodik ishlarini tashkil etish” modulining o‘quv dasturi.

1-mavzu. Tarix fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish usullari (2 soat amaliy mashg‘ulot).

Tarix o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish O‘qituvchilarni xronologik, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish. Tarix darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish. Interfaol metodlar va uni amaliyotda qo‘llash.

2mavzu. Tarix fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishning afzalliklari (2 soat amaliy mashg‘ulot).

